



PEDAGOG KASBINING QADRIYATLARI

Malohat Xidirova

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti,

Odina Xasanboyeva

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

3-sonli maktabning 10-A “Pedagogik sinf” o‘quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagog kasbining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda uning asosiy qadriyatlari yoritib berilgan. Pedagog shaxsining ma’naviy-axloqiy fazilatlari, kasbiy mas’uliyati va insonparvarlik tamoyillari ta’lim-tarbiya jarayonining muhim omili sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik faoliyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi, o‘qituvchining shaxs kamolotiga ta’siri hamda zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kasbiga qo‘yilayotgan talablar ochib berilgan. Maqola pedagog kasbining nufuzi va ijtimoiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy xulosalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: pedagog kasbi, pedagogik qadriyatlar, ta’lim va tarbiya, ustoz maqomi, kasbiy mas’uliyat, insonparvarlik, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, shaxs kamoloti, pedagogik etika, ijtimoiy mas’uliyat, bilim va tarbiya uyg‘unligi, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarbiyaviy jarayon, o‘quvchi shaxsiga hurmat, fidoyilik, innovatsion pedagogika.

O‘qituvchi jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi, yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi muhim ijtimoiy institut vakilidir. Shu bois pedagog kasbining qadriyatlarini o‘rganish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish va zamonaviy ta’lim talablari asosida tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta’lim sifatini oshirish, pedagog kasbining nufuzini yuksaltirish hamda ustoz sha’ni va mas’uliyatini mustahkamlash jarayonida ushbu qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.



Rivojlangan davlatlarda pedagog bo'lish uchun kuchli tanlov, psixologik va kasbiy tayyorgarlik talab etiladi. Bu o'qituvchilik kasbini oddiy kasb emas, balki yuqori malaka va mas'uliyat talab qiladigan nufuzli soha sifatida ko'rsatadi. Finlyandiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda o'qituvchilar eng hurmatli kasb egalari qatoriga kiradi. Ularning ish haqi raqobatbardosh bo'lib, barqaror ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlangan. Bu holat pedagog kasbining nufuzini sezilarli darajada oshiradi. Ko'plab davlatlarda pedagoglar uchun maxsus mukofotlar joriy etilgan. Jumladan, *Global Teacher Prize* orqali o'qituvchilar jamiyat oldida qahramon sifatida namoyon qilinadi. Bu kabi mukofotlar o'qituvchining kasbiy faoliyatini ommaviy e'tirof etish orqali uning ijtimoiy maqomini oshiradi.

UNICEF hamda O'zbekiston hukumati hamkorligida ta'lim tizimida raqamli va zamonaviy o'qitish metodologiyalarini joriy etish orqali pedagoglar malakasini oshirish va ularni innovatsion metodlarla ta'minlash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda pedagog xodimlarning ish haqi bosqichma-bosqich oshirildi. Qo'shimcha ustamalar, rag'batlantiruvchi to'lovlar va mukofotlar joriy etilib, o'qituvchining mehnati munosib qadrlanmoqda. Bu kasbning iqtisodiy jozibadorligini kuchaytirdi. Dunyo talablariga moslashuvi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Maktablar va oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, zamonaviy infratuzilma yaratilmoqda. Bu o'qituvchining mehnat sharoitini yaxshilash bilan birga, kasbga bo'lgan hurmatni kuchaytiradi.

Pedagogik qadriyatlar - bu pedagogik faoliyatga xos bo'lib, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini o'zida ifoda etadi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq. O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, o'quvchi shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi. Biz ushbu maqolamizda ijtimoiy, guruhiy va shaxsiy qadriyatlarning



mazmun-mohiyatini ochib berib, ularni hayotiy va pedagogik faoliyatga oid misollar yordamida tahlil qilamiz.

Pedagogik qadriyatlar tizimida ijtimoiy qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. Ular jamiyat tomonidan pedagogik faoliyatga beriladigan baho, ta’lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy ahamiyati hamda pedagog kasbining jamiyat taraqqiyotidagi rolini ifodalaydi. Ijtimoiy pedagogik qadriyatlar ta’limni strategik resurs sifatida e’tirof etish, pedagog shaxsini jamiyatning ma’naviy va intellektual rivojlanishida yetakchi subyekt sifatida ko‘rish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Pedagogik ijtimoiy qadriyatlarning muhim jihatlaridan biri — jamiyat manfaatini anglash va unga xizmat qilishdir. Masalan, maktabda o‘tkaziladigan “Yoshlar va jamiyat” mavzusidagi tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarda jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatni shakllantiradi. Bunday mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar faqat o‘z manfaatini emas, balki jamiyat manfaatini ham hisobga olishni o‘rganadilar. Shuningdek, hamkorlik va jamoaviylik pedagogik ijtimoiy qadriyatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida maktab, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Muammoli xulqli o‘quvchi bilan ishlashda ijtimoiy pedagog ota-ona va mahalla faollari bilan birgalikda tarbiyaviy reja ishlab chiqsa, bu nafaqat o‘quvchining xulqini yaxshilaydi, balki uning jamiyatga moslashuvini ham tezlashtiradi.

Pedagogik ijtimoiy qadriyatlar ijtimoiy tenglik va adolat tamoyiliga ham asoslanadi. Bunda pedagog sinfda barcha o‘quvchilarga ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, teng imkoniyat yaratib berishi, baholashda adolatli bo‘lishi orqali o‘quvchilarda tenglik va adolat haqidagi tushunchalarni mustahkamlaydi. Bu esa kelajakda jamiyatda adolatli munosabatlarning qaror topishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim ijtimoiy qadriyat — ijtimoiy moslashuvdir. Bunga misol tariqasida, yangi muhitga tushib qolgan yoki boshqa hududdan ko‘chib kelgan o‘quvchilar bilan guruhli mashg‘ulotlar, jamoaviy o‘yinlar tashkil etilishi ularning sinf jamoasiga tezroq moslashishiga yordam beradi. Bu jarayonda pedagog o‘quvchini jamiyatdan ajralib qolmasligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, fuqarolik



faolligi ham pedagogik ijtimoiy qadriyatlar sirasiga kiradi. O'quvchilarning ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari yoki obodonlashtirish ishlarida ishtirok etishi ularni jamiyat hayotiga faol jalb etadi. Maktab tomonidan tashkil etilgan "Toza muhit" aksiyasida qatnashgan o'quvchilar atrof-muhitni asrash nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy mas'uliyat ekanini anglay boshlaydilar.

Pedagogik qadriyatlar tizimida guruhiiy qadriyatlar nafaqat muhim o'rin egallaydi, balki o'quvchilar o'rtasidagi hamjihatlik, jamoaviy ruh va pedagogik jarayondagi samaradorlikni shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular ta'lim muassasasi, pedagogik jamoa, o'quvchilar guruhi hamda ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi ijtimoiy guruhlar doirasida shakllanadigan va amal qilinadigan qadriyatlar majmuasini ifodalaydi. Guruhiiy pedagogik qadriyatlar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, pedagogik hamkorlikni mustahkamlash va sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pedagogik jamoada shakllangan o'zaro hurmat, hamjihatlik, mas'uliyat va hamkorlik tamoyillari guruhiiy qadriyatlarning asosini tashkil etadi. Bunday muhitda pedagoglar o'zaro tajriba almashadi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va umumiy maqsad — sifatli ta'lim va barkamol shaxsni tarbiyalash yo'lida birlashadi. Natijada pedagogik faoliyat individual harakatlar yig'indisi emas, balki jamoaviy ijodiy jarayonga aylanadi.

Guruhiiy pedagogik qadriyatlarning asosiy ko'rinishlaridan biri — jamoaviylik va hamkorlikdir. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, ularga umumiy loyiha yoki topshiriq beradi. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'z vazifasini bajaradi va umumiy natija uchun mas'ul bo'ladi. Natijada o'quvchilarda jamoa bilan ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va o'zaro yordam ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, o'zaro hurmat va muloqot madaniyati guruhiiy pedagogik qadriyatlarning muhim jihati hisoblanadi. Masalan, sinfda munozara yoki bahs jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchining fikrini tinglashga, boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Bu holat o'quvchilarda bag'rikenglik va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.



Guruhiy pedagogik qadriyatlar mas'uliyat va intizom bilan ham chambarchas bog'liq. Sinf jamoasi tomonidan qabul qilingan ichki qoidalar (navbatchilik, tartibni saqlash, darsga tayyorgarlik)ga amal qilish har bir o'quvchining jamoa oldidagi mas'uliyatini oshiradi. Agar bir o'quvchi o'z vazifasini bajarmasa, bu butun jamoaga ta'sir qilishini anglaydi.

Yana bir muhim guruhiy qadriyat — o'zaro yordam va birdamlikdir. Darsni yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilimida qiyinchilikka duch kelayotgan sinfdoshlariga yordam berishi orqali sinfda do'stona va sog'lom muhit yaratiladi. Bu jarayon nafaqat bilim almashuviga, balki jamoaning yanada jipslashishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, guruhiy pedagogik qadriyatlar yetakchilik va bo'ysunish madaniyatini ham shakllantiradi. Guruh sardori yoki loyiha rahbari sifatida tanlangan o'quvchi jamoani boshqarishni, boshqalar esa yetakchiga bo'ysunib, umumiy maqsad sari harakat qilishni o'rganadilar. Bu kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy faoliyat uchun muhim tajriba hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy pedagogik qadriyatlariga ham bog'liq. Shaxsiy pedagogik qadriyatlar — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiluvchi axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qarashlar majmuasidir. Ushbu qadriyatlar pedagogning o'quvchi bilan munosabatida, ta'lim mazmunini tanlashda hamda tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, insonparvarlik (gumanizm) pedagogik qadriyatlarning asosiylaridan biridir. Insonparvar o'qituvchi har bir o'quvchini shaxs sifatida qabul qiladi, uning fikrini hurmat qiladi va individual imkoniyatlarini inobatga oladi. Dars jarayonida sust o'zlashtiruvchi o'quvchini tanqid qilish o'rniga, unga qo'shimcha tushuntirish berish va rag'batlantirish insonparvarlik qadriyatining amaliy ko'rinishidir. Shuningdek, adolat va xolislik o'qituvchi faoliyatida muhim shaxsiy pedagogik qadriyat hisoblanadi. Baholash jarayonida barcha o'quvchilarga teng munosabatda bo'lish, shaxsiy munosabatlarni ta'lim jarayoniga aralashtirmaslik pedagogning



kasbiy madaniyatini namoyon etadi. Bunda faol o'quvchi bilan kam gapiradigan o'quvchiga bir xil mezon asosida baho qo'yish adolat tamoyilining ifodasidir.

Mas'uliyat va fidoyilik ham shaxsiy pedagogik qadriyatlar qatoriga kiradi. O'qituvchi nafaqat bilim berish, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi uchun mas'uldir. Darsdan tashqari vaqtda ham o'quvchilarning savollariga javob berish, ularning muammolariga befarq bo'lmaslik o'qituvchining fidoyiligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, doimiy o'z ustida ishlash va kasbiy rivojlanishga intilish zamonaviy pedagogning muhim qadriyatidir. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish, malaka oshirish kurslarida qatnashish va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish o'qituvchining kasbga bo'lgan hurmatini aks ettiradi. Interaktiv metodlardan foydalanib dars o'tish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi, bilimlarni samarali o'zlashtirishiga va faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kasbi jamiyat taraqqiyotining tayanch omillaridan biri bo'lib, uning mazmun-mohiyati pedagogik qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada tahlil qilinganidek, pedagogik qadriyatlar ijtimoiy, guruhiiy va shaxsiy darajalarda namoyon bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilaydi. Ijtimoiy qadriyatlar pedagog kasbining jamiyat oldidagi mas'uliyati va ahamiyatini ifodalasa, guruhiiy qadriyatlar ta'lim muassasasida sog'lom pedagogik muhit va samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Shaxsiy pedagogik qadriyatlar esa o'qituvchining kasbiy faoliyati, o'quvchi bilan munosabati va tarbiyaviy ta'sirining asosini tashkil etadi. Umuman olganda, pedagog kasbining nufuzini oshirish, ta'lim sifatini yuksaltirish va barkamol shaxsni tarbiyalash pedagogik qadriyatlarni anglash, ularga amal qilish va ularni zamonaviy ta'lim talablari asosida rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois pedagogik qadriyatlarni mustahkamlash nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning barqaror va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D.A.Tursunova, Pedagogik aksiologiya. Darslik. "Classic" nashriyoti, 2024



2. A.Qodirov, Ta'limda aksiologik yondashuv, Toshkent, O'zbekiston: Innovatsiya, 2019.
3. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma, «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.
4. UNESCO, Education for Sustainable Development, Paris, France, 2019. 9. J. Dewey, Democracy and Education, New York, NY, USA: Macmillan, 2015.
5. M.Q.Khidirova. ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON HEUTAGOGICAL APPROACHES, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center. Volume 4, Issue 2, February 2024 ISSN 2181-2020, 178-189 pages
6. Xidirova M.Q. KATTA YOSHLILARNI O'QITISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari. 466-470 betlar